

BOSHLANG`ICH SINFLARDA FIN TA`LIMI

Hakimova Marjona Iskandarzoda

O`zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti Boshlang`ich ta`lim va gumanitar fanlar fakulteti Boshlang`ch ta`lim yo`nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: dots. Normo`minov Sherzod To`ychiyevich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada butun dunyo tan olgan Finlandiya ta`lim tizimining o`ziga xos xususiyatlari hamda uning boshqa ta`lim tizimlaridan farqi aytib o`tilgan. Shuningdek, maqolada mamlakatimiz ta`lim tizimida Finlandiya ta`lim tajribasini qo`llash sabablari hamda undagi ta`lim tizimining bir nechta jihatlari keltirilgan.*

Kalit so`zlar: *Finlandiya ta`lim tizimi, boshlang`ich ta`lim, o`quv metodlari, PISA baholash dasturi, Finlandiy ta`lim tizimidagi farqli jihatlari.*

FINNISH EDUCATION IN PRIMARY GRADES

Abstract: *In this article, the unique features of the Finnish education system recognized by the whole world and its difference from other education systems are mentioned. Also, the article presents the reasons for using the Finnish educational experience in the educational system of our country, as well as several aspects of the educational system in it.*

Key words: *Finnish education system, primary education, teaching methods, PISA evaluation program, differences in the Finnish education system.*

ФИНСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: *В данной статье упоминаются уникальные особенности финской системы образования, признанные во всем мире, и ее отличие от других систем образования. Также в статье представлены причины использования финского образовательного опыта в образовательной системе нашей страны, а также некоторые аспекты образовательной системы в ней.*

Ключевые слова: *Система образования Финляндии, начальное образование, методы обучения, программа оценки PISA, отличия финской системы образования.*

“Maktabda o`qitish metodikasi o`zgarmasa, ta`lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o`zgarmaydi.”

Shavkat Mirziyoyev

Kelajagimiz bo`lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol bo`lib yetishishida ta`lim muhim o`rin egallaydi. Ayniqsa, bu borada boshlang`ich ta`lim tizimi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Chunki uzluksiz ta`lim tizimini keyingi bosqichlarining natijasi

va samaradorligi boshlang'ich ta'lim jarayonida olingan bilim va shakllangan ko'nikmalarga bog'liq bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim tizimini bu sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, innovatsion g'oyalarni va ilg'or chet el tajribasini tadbiq etish orqali jiddiy yondashgan holda isloh qilish talab etiladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida Finlandiya tajribasini qo'llash yuzasidan keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. Xo'sh, ushbu davlat ta'lim tizimining o'ziga xosligi nimada? Finlandiya ta'lim tizimi bunday muvaffaqiyatga qanday erishdi?

Finlandiya xalqaro miqyosdagi baholashda o'z muvaffaqiyatlari bilan ajralib turadi. PISA dasturi 2000-yilda tashkil etilgandan buyon Finlandiya unda muntazam qatnashib kelmoqda va erishgan natijalari bilan fin ta'lim tizimi dunyodagi ko'plab mamlakatlarning e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Keling, Finlandiya ta'lim tizimining bir nechta farqli jihatlari, ayniqsa, uning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati va ta'sirini ko'rib chiqaylik.

Finlandiyada majburiy boshlang'ich maktab yoshi 7 yosh hisoblanadi. Finlandiyada majburiy ta'lim 9 yil davom etadi, o'quvchilar 16 yoshdan o'qishni tark etishi mumkin. Ushbu g'oya Finlandiya talabalarini haqiqiy hayotga tayyorlashga qaratilgan. Finlandiya talabaları rivojlangan mamlakatlar ichida eng kam dars soatlarini o'qiydi (darslar 8-9 oralig'ida boshlanib, kunduzgi 2 gacha yakunlanadi), shunga qaramay juda yaxshi natijalar qayd etadi. Finlandiyadagi maktablar hech qanday tartibda joylashmagan, maktablar, mintaqalar, o'qituvchilar va hatto talabalar o'rtasida taqqoslashlar mavjud emas. Ular raqobat emas, aynan hamkorlikni muvaffaqiyat kaliti, deb hisoblashadi. Ularda "men" olmoshidan ko'ra "biz" olmoshini ko'proq ishlatish samarali hisoblanadi.

Fin o'qituvchilari dunyodagi eng malakali mutaxassislardir. Finlandiyada o'qituvchilikka bo'lgan talablar juda yuqori. O'qituvchilari xuddi shifokorlar va huquqshinoslar kabi maqomga ega. Ularning ijtimoiy mavqei ham juda yuqori. Fin o'qituvchilarining bu qadar yuksak mavqega egaliklari o'qituvchi kasbiga bo'lgan talabning yuqoriligi hamda malaka imtihonlarining murakkabligi bilan izohlanadi. Shuning uchun Finlandiyada ular o'z o'qituvchilarini doimiy ravishda baholash va baholab borish zaruratini sezmaydi. Agar o'qituvchidan qandaydir xato yoki kamchilik o'tadigan bo'lsa, u bilan maktab direktorining o'zi shug'ullanib qo'ya qoladi.

Finlandiya talabaları ko'proq tillarni o'rganishadi. Ular fin tilini maktabdagi birinchi kundan o'rganadi. 9 yoshida ular shved tilini o'rganishni boshlaydi. 11 yoshida ular uchinchi tilni (odatda ingliz tilini) o'rganishga rag'batlantiriladi. Ko'plab o'quvchilar 13 yoshida to'rtinchi tilni o'rganayotgan bo'ladi. O'qituvchilar odatda kuniga 4 soatdan mashg'ulot o'tkazadi va har hafta ularga kasbiy rivojlanish uchun 2 soat vaqt ajratiladi.

Yoshidan qat'iy nazar, bolalar maktabga o'zlari piyoda yoki velosipedda borishadi. Finlandiya madaniyati bolalarni mustaqil tarbiyalashga e'tibor beradi. Ota-onalar farzandlarini maktabga olib kelish yoki olib ketish, darslariga yordam berish

kabi narsalar yo`q. Finlandiyada barcha maktab xarajatlari davlat tomonidan qoplanadi. O`qishning o`zidan tashqari quyidagilar bepul:

- tushlik;
- ekskursiyalar, muzeylar va sinfdan tashqari har qanday faoliyat;
- bolani uyidan olib ketuvchi va qaytaruvchi transport, agar eng yaqin maktab 2 kilometrdan uzoqda bo`lsa;
- o`quv darsliklari, barcha o`quv qurollari, kalkulyatorlar va hatto planshet-noutbuklar.

Finlandiyaning o`quv dasturi oddiy va umumiy asoslarni belgilashdan iborat. O`quvchilar o`zlarining ta`lim dasturlarini o`zlarining qiziqishlari va ehtiyojlariga muvofiq ravishda shakllantirish huquqiga ega. O`qituvchi ham shunday. Bu yerda yoshlarning besh nafaridan uch nafari bo`sh vaqtida sport, san`at yoki madaniyat kabi sohalarda fa`oliyat yurituvchi assotsiatsiyalarga a`zo. Bugun 90% yosh fin bittadan sevimli mashg`ulotga ega. Bu esa ularning maktabdagi muvaffaqiyatlariga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

"Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki — imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz", - deydi finlar. Shuning uchun Finlyandiyadagi maktablarda imtihonlar yo`q. Finlandiyalik o`quvchilarga ta`limning dastlabki olti yilida hech qanday baho qo`yilmaydi. Sakkizinchi sinf oxirida baho berish shart emas va talabalar standartlashtirilgan imtihon tizimiga bo`ysinmaydi. Ular 16 yoshga to`lganda bir marta butun mamlakat bo`ylab imtihon topshirishadi. Finlyandiyada maktab bolani eng asosiysi - mustaqil muvaffaqiyatli hayotga o`rgatishi kerak deya hisoblanadi. Shu bois u yerda fikr yuritish va o`z xohishiga ko`ra bilim olishga o`rgatiladi. O`qituvchi yangi mavzularni so`zlab o`tirmaydi - barchasi kitobda bor. Yod olingan formulalar emas, ma`lumotnomadan, matndan, internetdan, kalkulyatordan foydalanish - joriy muammolar yechimini topish uchun kerakli resurslarni jalb qilishni bilish muhim. O`qituvchilar kun davomida sinfda o`rtacha to`rt soat dars berishadi. O`zlarining malakasini oshirish maqsadida haftasiga ikki soat vaqtni malaka oshirish darslariga ajratadilar. Finlandiyada o`qituvchilik jamiyatdagi eng yuqori mavqega ega bo`lgan kasblardan biridir.

Finlandiyalik o`qituvchilarni muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz deb baholamaydilar. Kamchiliklari bo`lgan o`qituvchilarga yangi ta`lim dasturlari bilan o`zlarini takomillashtirishga imkoniyat yaratib beriladi. Hech bir o`qituvchining dars o`tish tarsi sabab ishdan bo`shatilishidan qo`rqmaydi. Finlandiyada birgina boshlang`ich sinf o`qituvchilarini tayyorlash dasturi naq 5 yil davom etadi. O`qituvchilarning yuqori darajadagi bilimlari – ularning bolalar rivojlanishining barcha turlarini kuzatishi va moslashuvchan yechimlarni yaratish uchun eng muhim vositadir. Statistik ma`lumotlarga ko`ra, o`rtacha 30% bolalar ta`lim olishi hayotlarining dastlabki to`qqiz yilida maxsus dasturlar tomonidan qo`llab-quvvatlanadi.

O`quvchilarga uy vazifasi berilmaydi, chunki o`qish joyi faqat maktab deb hisoblanadi. Har bir bolaga individual tarzda e`tibor beriladi. Agar bolalardan biri

yetarli darajada o`qiy olmayotgan bo`lsa, o`qituvchilar darhol buni sezadilar va bolaning o`quv dasturini shaxsiy ehtiyojlariga moslashtiradilar. Xuddi shu narsa maktabga kirishib ketolmaydigan, zerikkan yoki o`rganish tezligi muddatidan ilgari bo`lgan bolalar uchun ham amal qiladi.

Finlandiya maktablarida sport bilan shug`ullanish uchun juda ko`p joy mavjud, ammo sport musobaqalari uchun jamoalar mavjud emas. Raqobat, biri boshqasidan ustun kelishi, fin madaniyatida qadrlanadigan narsa emas. Finlandiyada tenglik tushunchasi juda qadrlanadi. Barcha bolalar, ularning aqllari va qobiliyatlaridan qat`iy nazar, bir xil sinflarda o`qiydilar.

Nufuzli xalqaro tashkilotlarining tadqiqotlar va izlanishlariga ko`ra, finlyandiyalik maktab o`quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Ular shuningdek, dunyodagi eng ko`p kitob o`quvchi bolalar hisoblanadi. Bundan tashqari, finlyandiyalik maktab o`quvchilari tabiiy fanlar bo`yicha - dunyoda ikkinchi, matematika bo`yicha esa beshinchi o`rinni egallashadi. Biroq ular bu yutuqlardan hech qachon to`xtab qolishmaydi. Shunisi ajablanarliki, dunyo miqyosida yuqori ko`rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, finlandiyalik maktab o`quvchilari darslarga u qadar ko`p vaqt ajratishmaydi. Ular dars jarayonida dunyo tan olgan dars metodlaridan foydalanishadi. Shuning uchun, so`nggi paytlarda Finlandiyadagi ta`lim tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan hisoblanib, yuqori darajada rivojlangan.

Har bir rivojlangan mamlakatlarning ortida, albatta, yuksak bilim va mehnat yotadi. Bu haqda mashhur yozuvchi Grigoriy Petrovning quyidagi so`zlarini keltirmoqchiman: "Xalqlarning taqdirini belgilaydigan, ularga tinchlik va farovonlik sari olg`a borish uchun imkon beradigan voqea "milliy uyg`onish" deb aytiladi. Milliy uyg`onishga olib boradigan yo`l yuksak axloq, mehnatsevarlik va ishlabchiqarish orqali o`tadi va bu faqat poydevori mustahkam bir ta`lim tizimi bilan qilinishi mumkin. Afsuski, ta`lim tizimini mustahkam poydevor asosida qura olmaydigan jamiyatlarning taqdiri halokatdir. Zamonaviy dunyoda bilimli, yuqori malakali aholi bir mamlakat uchun muvaffaqiyatning kalitidir."

Finlyandiya maktablaridagi ta`lim tizimini qisqa satrlarda quyidagicha xulosa qilib keltirish mumkin. Ehtimol, bu kimgadir noto`g`ridek tuyulishi mumkin. Finlar mukammallikka da`vogarlik qilishmaydi va erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolishmaydi, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar bo`lishi mumkin deb o`ylashadi. Ular mamlakatdagi maktab tizimi jamiyatdagi o`zgarishlarga qanchalik to`g`ri kelishini doimiy ravishda tadqiq qilishadi. Shunisi quvonarliki, finlarning farzandlari tunda asabiy zo`riqishdan uyg`onmaydi, tezroq katta bo`lishni orzu qilmaydi, ularda maktabga nisbatan nafrat yo`q, o`quvchilar navbatdagi imtihonlarga tayyorlanib, o`zlari va butun oila a`zolarini qiynamaydi. Xotirjam, sermulohaza va baxtli fin bolalari kitoblar mutolaa qilishadi, tarjimasiz filmlar ko`rishadi, kompyuter o`yinlari o`ynashadi, rolik va velosipedlarda uchishadi, musiqa va teatr pesalari yaratishadi, qo`shiq kuylashadi. Ular hayotdan quvonib yashashadi va buning orasida

ta`lim olishga ham ulgurishadi. Finlandiya ta`lim tizimining mo`jizasi hamda yutuqlarini men aynan mana shunda deb o`ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTALAR:

1. Timoti Uoker “Finlandiya ta`lim mo`jizasi” Maroqli dars o`tishning 33 siri. – Toshkent: “Global books”, 2023. 272 bet. Rus tilidan Botir Raxmonov tarjimasi.
2. Grigoriy Petrov “Oq nilufarlar yurtida” Bir millatning uyg`onishi... Inglizchadan Niyat Sultonmurodov tarjimasi “TURON NASHR” Samarqand – 2021.